



CULTURAL APPROACH TO WOMEN'S REPRODUCTIVE HEALTH: BASED ON ANTHROPOLOGICAL RESEARCH

Kamolakhon Abdurakhmonova

Lecturer

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: abduraxmonova_k@nuu.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: medicine, healthcare, birth rate, infection, gender equality, global health, medical services.

Received: 10.04.25

Accepted: 12.04.25

Published: 14.04.25

Abstract: In this article, a systematic analysis of the dynamics of development in the field of protection of women's and children's health and the effectiveness of medical services is carried out in our country. During the study, an anthropological analysis of issues related to women's reproductive health is carried out, in particular, pathological conditions occurring during pregnancy, infectious complications and their negative impact on the socio-economic stability of society. In the case of Fergana, the quality of medical services and their territorial characteristics are assessed based on statistical indicators of the perinatal period, such as the birth rate, neonatal mortality, as well as monitoring of adverse events associated with pregnancy. The results of the analysis show that preventive and therapeutic measures aimed at ensuring reproductive health are being consistently implemented, as well as special attention is paid to women's health in the healthcare system. This identifies positive trends in regional health indicators in the context of the state of medical services and their social significance.

AYOLLAR REPRODUKTIV SALOMATLIGIGA MADANIY YONDOSHUV: ANTROPOLOGIK TADQIQOT ASOSIDA

Kamolaxon Abduraxmonova

o'qituvchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: abduraxmonova_k@nuu.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: tibbiyot, sogʻliqni saqlash, tugʻilish koʻrsatkichi, infeksiya, gender tenglik, global salomatlik, tibbiy xizmat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda xotin-qizlar va bolalar salomatligini muhofaza qilish sohasidagi rivojlanish dinamikasi hamda tibbiy xizmatlar samaradorligining tizimli tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida ayollar reproduktiv salomatligiga oid masalalar, xususan, homiladorlik davrida yuzaga keladigan patologik holatlar, infeksiyon asoratlar va ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga koʻrsatadigan salbiy taʼsiri antropologik tahlil qilinadi. Fargʻona misolida perinatal davrga oid statistik koʻrsatkichlar tugʻilish darajasi, neonatal oʻlim holatlari, shuningdek, homiladorlik bilan bogʻliq noxush holatlar monitoringi asosida tibbiy xizmatlar sifati va ularning hududiy xususiyatlari baholanadi. Tahlil natijalari reproduktiv salomatlikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan profilaktik va terapevtik chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilayotganligini, shuningdek, sogʻliqni saqlash tizimida xotin-qizlar salomatligiga nisbatan alohida eʼtibor qaratilayotganligini koʻrsatadi. Shu orqali tibbiy xizmatlarning holati va ularning ijtimoiy ahamiyati kontekstida hududiy salomatlik indikatorlarining ijobiy tendensiyalari aniqlanadi.

КУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД К РЕПРОДУКТИВНОМУ ЗДОРОВЬЮ ЖЕНЩИН: НА ОСНОВЕ АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Камолахон Адрурахманова

Преподаватель

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: abduraxmonova_k@nuu.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медицина, здравоохранение, рождаемость, инфекция, гендерное равенство, глобальное здравоохранение, медицинские услуги.

Аннотация: В статье дается системный анализ динамики развития сферы охраны здоровья женщин и детей и эффективности медицинских услуг в нашей стране. В исследовании будет проведен антропологический анализ проблем, связанных с репродуктивным здоровьем женщин, в частности, патологических состояний, возникающих во время беременности, инфекционных осложнений

и их негативного влияния на социально-экономическую стабильность общества. В случае с городом Фергана, качество медицинских услуг и их региональные особенности оцениваются на основе статистических показателей перинатального периода, таких как рождаемость, неонатальная смертность, а также мониторинг неблагоприятных событий, связанных с беременностью. Результаты анализа свидетельствуют о последовательной реализации профилактических и лечебных мероприятий, направленных на обеспечение репродуктивного здоровья, а также на то, что в системе здравоохранения особое внимание уделяется здоровью женщин. Это позволит выявить положительные тенденции показателей регионального здравоохранения в контексте состояния медицинских услуг и их социальной значимости.

KIRISH.

Jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorligi va taraqqiyoti avallo, ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan chambarchas bog'liq bo'lib, avlodlarning komilligi oilada ayolning tutgan o'rni bilan belgilanadi (*Aёлга эҳтиром*, 1999, 6. 11). Bunday avlodni tarbiyalashda ayollarning jismoniy salomatligiga va ma'naviy kamolotiga e'tiborli bo'lishni talab qiladi. Homiladorlik bilan bog'liq o'lim holatlarini kamaytirish bugungi kunda global salomatlik va rivojlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasining 4-bo'limida (2023) aholi salomatligiga qaratilgan islohotlar punktida Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish uchun sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish dolzarb vazifalarimizdan biri ekanligini keltiradi. Shuningdek, qonunchilik hujjatlari, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va ijtimoiy dasturlar ayollar salomatligini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lib, **“Ayollarni qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash milliy dasturi”**, **“2022–2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi”** kabi hujjatlar ayollar salomatligi masalalarini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi.

ASOSIY QISM

Kasallik bu - virus, bakteriya, parazit yoki boshqa zararkunandalar oqibatida vujudga keluvchi, sog'liqqa xavf soluvchi tahdid hisoblanadi (*Saidova et al.*, 2024, p. 22). Tibbiy antropologlar turli etnik guruhlar va madaniyatlar turli xil kasalliklarni o'rganib, salomatlikni

yaxshilovchi hamda kasallikni davolovchi yo'nalishlarni ishlab chiqdilar. Tibbiyot antropologlari "qaysi kasallik aholiga ko'proq ta'sir qilishini", "kasallik qanday qilib ijtimoiylashgan"ni o'rganadi.

Xorij tadqiqotchilari **Mikhel (2010), Foster va Anderson (1978), Ackerknecht (1953), Rivers (1924), va Simonyan (2020)**lar olib borgan tadqiqotlarida jamiyatning salomatlik muammolari, kasallik nazariyalari va sog'liqni muhofaza qilish tizimlari izohlab berilgan. Amerikalik antropolog Klayton J. Roberts tibbiy amaliyotda sog'liqni saqlash, davolash texnologiyalari va nizolarni hal qilishning madaniy jihatlarini o'rgangan. Artur Kleynman kasallik, davolash va psixoterapiyaning madaniy jihatlarini bo'yicha tadqiqotlar olib borgan (Abduraxmonova, 2024, p. 33). Tarix fanlari doktori (DSc) G.E. Muminova (Muminova, 2018) tadqiqotlarida davolash diagnostika texnologiyalari, davolashda yangi texnologiyalarni tatbiq etish, ichki kasalliklar patologiyasi, reproduktiv salomatlik, yangi vaksina tatbiq'i, umr ko'rish yoshini uzaytirish, texnologiyalaridan unumli foydalanish tizimini shakllantirish, sanitariya masalalari bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilishini ko'rishimiz mumkin. Tibbiyot tizimlari ikkita komponentni: "kasallik nazariyalari tizimi" hamda "sog'liqni saqlash tizimi"ga bo'lib o'rganiladi. Asosiy e'tibor albatta jamiyat salomatligini yanada mustahkamlashga qaratiladi. 1920-yillarda nashrdan chiqqan *"Туркестанская туземная газета"*, *"Наша жизнь"*, *"Туркестанская слово"*, *"Рабочий путь"*, *"Туркестанский ведомости"*, *"Қизил Ўзбекистон"*, *"Правда востока"*, *"Ташкентская правда"* kabi gazetalarning sonlarida asosan, teatr va kinoteatrlar repertuarlari, oliy o'quv yurtlari va turli hamshiralik texnikumlariga tayyorlov kurslari, til kurslari ayol va qizlarni taklif qilish xususidagi xabarlar keltirilgan. Ma'lumki, o'zbek ayollari XIX asr so'nggiga qadar asosan uy yumushlari, bola tarbiyasi, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Ularning uydan tashqariga chiqib, ijtimoiy hayotda erkaklar bilan bir barobarda ishlashga undash jarayonini yanada tezlashtirishi uchun kerak edi. Ayollar jamiyatda erkaklar bilan teng mehnat qilishlari ularga iqtisodiy foyda keltirish bilan birgalikda, bilim jihatdan saviyasi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortishiga sabab bo'ldi. Tibbiyot hodimlari aholining tibbiy savodxonligini oshirish maqsadida jamoat joylarda tashviqot ishlarini olib borishgan. Xalq tomonidan Tibbiyot maskanlarida kasalliklarga qarshi emlash, kasalliklarning belgilari haqidagi ma'lumotlar doimiy kuzatib borilgan. Xalq tabobati bilan birgalikda zamonaviy tibbiyot ham rivojlanib, insonlarning tibbiy savodxonligini oshirishda bu kabi tashviqot ishlarining roli katta bo'lgan. Tadqiqotlarga yuzlanadigan bo'lsak, tarix fanlari doktori, professor Sanobar Shodmonovanning "XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston matbuotida xotin-qizlar huquqlari haqidagi munozaralar" nomli maqolasida bu davrdagi nashr etilgan turli gazetalardagi maqolalarni taxlil qilib, o'zbek ayollarining ijtimoiy holati, ayollarning

jamiyatda faol emasligini va ularni ozod qilish haqidagi qarashlarga qarshi, hudud aholisining kundalik hayoti bilan yaxshi tanish bo'lgan mualliflarning fikrlarini keltirgan holatda tasvirlansa, Vladimir Nalivkin va Mariya Nalivkina (Nalivkin & Nalivkina, 2020)larning musulmon ayollarining huquqlari shariat va odat bo'yicha qattiq himoya qilinganligi, Yevropadagiga nisbatan bu yerda erkaklarning zulmkorligi kamroq va ayollar ko'proq huquqqa ega ekani keltirilgan (Shodmonova, 2020). Dastlabki mahalliy xotin-qizlar va bolalarga mo'ljallangan shifoxona 1883-yilda Toshkentda ochilgan bo'lib (Badalov. 2021), birinchi musulmon ayol shifokori Roziya Qutluyarova Peterburgda 1900-yilda tahsil olib, Toshkentda faoliyat olib borganligi ayol shifokorlar tarixini tahlil qilgan Lipinska (1900)ning ishida uchramiz.

Bugungi kunda xotin-qizlarning sog'lig'ini saqlash, xotin-qizlarga xos bo'lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, onalikni muhofaza qilishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi. Ayollar o'rtasida homiladorlik bilan bog'liq o'lim holatlarining oldini olish bugungi kunda salomatlik va rivojlanishning xalqaro ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Biroq, onalar o'limining asosiy sabablari bo'lgan og'ir akusherlik asoratlari boshdan kechirgan ayollar bilan nima sodir bo'lishi haqida juda kam tadqiqotlar mavjud bo'lib, asosan tibbiyot fanlari doktorlari, psixologlar ilmiy ishlarda ularning ruhiy holatlari o'rganilgan.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, inson salomatligining 51,6% sog'lom turmush tarziga, 20,5% irsiyatga, 19,3% ekologik muhitga, 8,6% sog'liqni saqlash tizimiga bog'liq. Bundan ma'lum bo'ladiki, inson salomatligi turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, tashqi muhit (kimlar bilan muomala qilishi), qulay ish muhitiga bog'liq. Demak, yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, tibbiyot antropologiyasi asosiy e'tiborni jamiyatda kasalliklarning shakllari va tarqalishini keltirib chiqaradigan ijtimoiy munosabatlarga qaratadi. Mazkur yondashuv kasalliklarning kelib chiqishiga emas, balki ijtimoiy tizimlarga, ijtimoiy ma'noga, oqibatlariga qaratish kerakligini izohlaydi. Buni ijtimoiy omillar kasallikka tashxis qo'yishga ta'sir qilishi bilan izohlashadi.

Ayollarning o'z hayotlari davomida homiladorlik davrida qon yo'qotish, talvasalar yoki infeksiyalarga uchrashi yuqori hisoblanib, bu vaziyatga bir qator jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladigan ichki inqiroz sabab hisoblanadi. Falokatga yaqin bo'lgan hodisalar ayolning hayotini muqarrar ravishda yo'qotish bilan birga, ko'pincha bolani yo'qotish va ayollar hayotining kesishgan uchta o'lchovidagi yanada jiddiy buzilishlar bilan tavsiflanadi. Bularga jarohatlar, davom etayotgan kasallik va kuch va chidamlilikni yo'qotish tufayli tana yaxlitligi buzilishi, yuqori harajatlar, qarzlar tufayli uy xo'jaligining buzilishi va ijtimoiy o'ziga xoslik va ijtimoiy barqarorlikning buzilishiga olib keladi. Onalar salomatligi siyosati nafaqat hayotni

yo'qotishning oldini olishga, balki akusherlik inqirozi natijasida kelib chiqadigan boshqa yo'qotishlarning oldini olishga yoki kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Antropologlar Devis-Floyd (1992), Lokk (1993), Martin (2001), Scheper-Hughes (1992) va Rapp (1999)lar ta'kidlaganidek, "yaxshi" yoki "Ideal" homiladorlik bola yoki ayol madaniy muhitiga qarab juda farq qiladi (masalan, kambag'al ayolda salomatlik, oziqlanish borasidagi muammolarning mavjudligi). Jahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti baholashicha, 2015-2019-yillar davomida 15-49-yosh oralig'idagi har 1000 nafar ayolga to'g'ri keladigan bola oldirishlar soni deyarli 39 nafarni tashkil etib, O'zbekistonda bu ko'rsatkich ancha quyi darajada ekanligini World Health Organization (n.d.) veb-saytida mavjud bo'lgan statistik ma'lumotlarda ko'rish mumkin. Bola oldirish har 1000 ayolga (15-49 yosh) 2023-yil 4.0%, bu 2022-yilga nisbatan 4.2% bo'lib, onalar va bolalar uchun ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatli ekani, reproduktiv salomatlik yahshi ekanligi va diniy qarashlar bilan bog'liq. Jahon Bankining (n.d.) gender bo'yicha sahifasida keltirilgan ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 15-49 yoshli ayollarda kontraseptivlarni qo'llash darajasi 55,7 %ni tashkil qiladi (2019-yil). Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Xitoy (2017-yil, 80,5 %), Hindiston (2017-yil, 56,4 %) va AQSH (2018-yil, 66,1 %) kabi davlatlarda qayd etilgan. 2023-yil 15-49 yoshli har 100 ayolga O'zbekistonda Bachadon ichi spirali 41.2 %ni tashkil qilib, bu esa 2022-yilga nisbatan 41.5%ni tashkil qiladi. Gormonal preparatlarni ishlatish bo'yicha 08.%ni, 2022-yilga nisbatan 1.7%ni tashkil qiladi. BMT (2023)ning tahlillariga ko'ra O'zbekiston tug'ilishlar soni bo'yicha 33-o'rinni egallab, jami tug'ilish soni 961962 nafarni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 3.2%ga oshganini ko'rsatadi. Shundan 498245 nafar (2022-yilga nisbatan 3.3%) o'g'il bola chaqaloq, 463717 nafar (2022-yilga nisbatan 3.1%) qiz bola chaqaloq dunyoga kelgan. Tabiiy o'sish 2022-yilga nisbatan 3.8%ga oshgan. Sog'liqni saqlash tizimi va tibbiy xizmatlar sifatining oshishi, ijtimoiy va madaniy omillar tug'ilishga bevosita ta'sir qilgan.

2023-yil har 10 000 ayolga nisbatan (15-49 yosh) Farg'ona 17.1%ni tashkil qiladi. Ayollar salomatligini saqlash va ularning tibbiy yordamga ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Tug'ruqdagi homiladorlar ayollarning shifoxona o'rirlari bilan taminlanishi, tibbiy xizmatni oshirish, malakali tibbiy xizmat oshirish, aholining umumiy sog'lig'ini ijobiy hal qiladi.

Jamiyat bo'g'inida oila birinchi o'rinda bo'lib, Sog'lom ona va bola yurt kelajagi hisoblanadi. Lekin bugungi Yangi O'zbekistonda rivojlangan davlatlarning tibbiyot tizimining tajribasi biroz yetishmasligi Farg'ona shahri sog'liqni saqlash tizimida afsuski ko'zga tashlanmoqda. Misol uchun, tug'ruqxonalarda bemorlarni qabul qilish jarayoni tartibga solinmagan bo'lib, bu o'z navbatida navbat kutish vaqtining uzayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, ro'yxatga olish jarayoni ko'pincha soatlab davom etadi, bu esa bemorlarga

noqulayliklar yaratadi. Sanitar hamshiralarning yetishmasligi ham muammolarni kuchaytirmoqda. Oilaviy poliklinikalarda ham navbat kutishning tartibsiz holatda ekanligi, bu tibbiy muassasa ichida noxush holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Tajribali shifokorlarning yetishmasligi, hamshiralarning tajribasizligini ham ko'rishimiz mumkin. Sanitar holatning ham talabga javob bermasligi, dori mahsulotlarning aynan o'zining tanish dorixonalarida mavjud bemorga kerak bo'lmagan retseptlarni yozib berishlik holatlari ham mavjud. Ko'plab qishloq, tuman aholisi o'z hududidagi tibbiyot muassasalari xizmatidan qoniqmasligi sabab shahar ko'p tarmoqli poliklinikalariga yoki xususiy shifoxonalarga murojaat qilishni afzal ko'rmoqda. Farg'ona va Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi turli yosh doirasi vakillarida o'tkazilgan so'rovnoma () natijasi quyidagicha: *Nima sababdan ko'proq shahar markazidagi shifoxona xususiy poliklinikalarga murojaat qilasiz?* savoliga yaxshi shifokorlar mavjudligi javobini Farg'ona shahri respondentlari (63%), Toshkent shahri respondentlari (78%); Tanish qarindoshim ishlaydi javobini Farg'ona shahri respondentlari (5%), Toshkent shahri respondentlari (7%); Tashxisni aniq qo'yadi javobini Farg'ona shahri respondentlari (22%), Toshkent shahri respondentlari (18%); Yuqumli kasallik yuqish holati kamroq javobini Farg'ona shahri respondentlari (10%), Toshkent shahri respondentlari (0%) belgilashdi (Dala yozuvlari, 2022). Unga ko'ra Toshkent shahri aholisi yaxshi shifokorlar mavjudligi sababli, Farg'ona shahrida tashxisni aniq qo'yganligi xususiy kasalxonalarga murojaat qiladi.

Reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish, erta nikohlarning oldini olish, perinatal xizmatlarni takomillashtirish kabi sohalarda qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. **Oilaviy poliklinikalar, ayollar maslahat markazlari, "Salomatlik markazlari"** kabi tibbiy muassasalar faoliyati kengaytirilib, aholining, ayniqsa, ayollarning sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati oshib bormoqda. Yurtimizning chekka hududlarida yashovchi ayollar uchun mobil tibbiy brigadalar tashkil etilishi, skrining tadbirlarining tizimli yo'lga qo'yilishi ayollarning erta diagnostika va profilaktikaga bo'lgan tibbiy bilimni sezilarli darajada yaxshilagan. Shuningdek, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash borasida aholining tibbiy madaniyatini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Media kampaniyalar, seminar va treninglar orqali ayollar o'z salomatligiga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga undalmoqda.

Ayollar salomatligini ta'minlashda tug'ruqxonalar muhim o'rinni egallaydi. Tug'ruq davri – ayol hayotidagi eng mas'uliyatli va xavfli bosqichlardan biri bo'lib, bu jarayonda ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifati onaning ham, yangi tug'ilgan chaqaloqning ham sog'lig'i va hayoti uchun bevosita ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, yurtimizning ayrim hududlarida tug'ruqxonalarda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ba'zi tug'ruqxonalarda zamonaviy

uskunalarining yoʻqligi yoki yetarli darajada ishlatilmasligi, malakali akusher-ginekologlar, neonatologlar va reanimatologlar yetishmasligi jiddiy muammo hisoblanadi. Bu holat ayniqsa qishloq joylarida yashovchi ayollar uchun xavfli boʻlib, tugʻruq asoratlari va onalar oʻlimi xavfini oshiradi. Tugʻruq jarayoni ham jismoniy, ham psixologik bosim bilan kechadi. Koʻplab ayollar sogʻlom psixologik muhit, dalda va samimiy muomala yetishmasligidan shikoyat qiladilar. Bunday muhitning yoʻqligi, ayniqsa birinchi marotaba ona boʻlayotgan ayollardagi stress holatini kuchaytiradi. Ayrim tugʻruqxonalarda sanitariya-gigiyena talablariga toʻliq rioya qilinmasligi, suv taʼminotidagi uzilishlar, xonalar sonining kamligi yoki yetarli darajada yoritilmaganligi kabi infratuzilmaviy muammolar ayollarning sogʻligʻiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Tugʻruqxonalarda baʼzida tibbiy xodimlar tomonidan sovuq muomala, ayollarning shikoyatlari yoki ogʻriqlari jiddiy qabul qilinmasligi, ayollarning hissiy holatiga befarqlik koʻrsatilishi holatlari uchrab turadi. Bunday muomala tibbiyot etikasiga va inson huquqlariga ziddir.

Fargʻona shahrida ona va bola salomatligini himoya qilish borasida ishlar natijasiga koʻra shaharda 2019-yilda 5603 nafar bolalar tugʻilgan boʻlsa, 2020-yilda bu koʻrsatkich 6249 nafarni tashkil qilgan. 2019-yilda goʻdaklar oʻlimi koʻrsatkichi 6,9 %ga teng boʻlgan boʻlsa, 2020-yilda goʻdaklar oʻlimi 6 taga kamaygan. 2020-yil holatiga koʻra 0-18 yoshgacha boʻlgan bolalar oʻrtasidagi jami 68 nafar bolalar oʻlimi sodir boʻlgan, vafot etgan bolalarni yoshma-yosh oʻrganilganda 0-1 yoshgacha 43 (2019-yilda 49) nafarni, 0-5 yoshgacha 52 nafarni, 0-14 yoshgacha 68 nafarni tashkil etmoqda. Oilaviy poliklinikalar kesimida 2019-2020-yillar solishtirilganda 1-oilaviy poliklinikada 7,0% ga, 4-sonli oilaviy poliklinikada 8,9% ga, 5-oilaviy poliklinikada 8,2%ga, 6-oilaviy poliklinikada goʻdaklar oʻlimi intensiv koʻrsatkichi 9,1%ga shahar koʻrsatkichidan yuqori boʻlgan. Goʻdaklar oʻlimini nazologik strukturasi birinchi oʻrinda perinatal oʻlim davr kasalliklari (72,0%), ikkinchi oʻrinda tugʻma nuqsonlar (16,1%), uchinchi oʻrinda infeksiyon parazitlar kasalliklari (11,6%) egallagan. Fargʻona shahrida ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida ishlar natijasi 2021-yil 12 oyda 7024 ta tugʻilish, 7021 nafar tirik tugʻilganlar qayd etildi. Tugʻilish koʻrsatkichi har 1000 aholi soniga 23,9%ni tashkil qildi. Jami xomiladorlik bilan royxatga olish 12 oy davomida 7743 nafarni tashkil qilmoqda. Ayollar sogʻligʻi jamiyat salomatligining tayanchi boʻlib, tugʻruq jarayonidagi muammolarni hal etish – sogʻlom avlodni dunyoga keltirish yoʻlida eng muhim qadamlardan biridir.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, yurtimizda xotin-qizlar va bolalar salomatligini saqlash tizimi sohasidagi rivojlanishlar, tibbiyot xodimlarining beqiyos mehnati va sogʻliqni saqlash sohasidagi islohotlar ijobiy natijalar berdi. Biroq, ushbu sohada yanada koʻproq ishlar amalga

oshirilishi, malakali kadrlar tayyorlash, tibbiy xizmatlarning qamrovini kengaytirish va salomatlik tizimiga qo'shimcha investitsiyalar kiritish muhim ahamiyatga ega. Maqola, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilashga qaratilgan tizimli yondashuvlarning muvaffaqiyatini va mavjud imkoniyatlarni samarali foydalana olish zaruratini ta'kidlaydi.

Ayollar salomatligiga davlat tomonidan qaratilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va zamonaviy yondashuvlar ayol salomatligini millat salomatligi darajasiga ko'targanini ko'rsatadi. Bu boradagi sa'y-harakatlar nafaqat tibbiy ko'rsatkichlarda, balki ijtimoiy barqarorlik, demografik holat va jamiyatlardagi ijtimoiy faollik darajasida ham o'z samarasini bermoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonova, K. R. (2024). Tibbiyot antropologiyasi o'rganilish tarixshunosligi. *Tarixiy Tadqiqotlar*, 2(2), 20–33. <https://hstryres.uz/journal/index.php/makro/ar-ticle/view/111>
2. Ackerknecht, E. H. (1953). *Medicine and Ethnology*. Verlag nicht ermittelbar.
3. Azizbek Badalov. (2021). *Jamiyat va innovatsiyalar – Obshchestvo i innovatsii – Society and Innovations, Special Issue – 2*, 274. ISSN 2181-1415.
4. Dala yozuvlari. (2022). Farg'ona va Toshkent shahri.
5. Foster, G. M., & Anderson, B. G. (1978). *Medical Anthropology*. New York: John Wiley & Sons.
6. Lipinska, M. (1900). *Histoire des femmes médecins* [History of women doctors: Thesis for the doctoral degree in medicine] (Doctoral dissertation). Paris: Librairie G. Jacques & Cie.
7. Mikhel, D. V. (2010). *Meditinskaya antropologiya: Istoriya razvitiya distsipliny: ucheb. posobie dlya studentov* [Medical anthropology: The history of the discipline: A textbook for students]. Saratov: Tekhno-Dekor.
8. Muminova, G. E. (2018). *O'zbekistonda sovet davrida sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1991 yillar)* [The history of the healthcare system in Uzbekistan during the Soviet era (1917-1991)] (Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.
9. Nalivkin, V. P., & Nalivkina, M. V. (20__). *Musul'manskie zhenshchiny Ferganskoy doliny: Etnografiya XIX veka iz Tsentral'noy Azii* (M. Kamp, Red.; M. Markova, Red. per.). Bloomington: Indiana University Press. <https://www.researchgate.net/publication/319242467>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2023, 11-sentabr). PF-158-son.
11. Rivers, W. H. R. (1924). *Medicine, Magic and Religion* (p. 144). London: Routledge.
12. Saidova, K., Abdullayeva, S., Yakubova, D., Gudalov, M., Abdurahmonova, K., Khudoykulova, H., Mukhammadova, G., & Zokirov, K. (2024). Assessing the economic benefits of climate change mitigation and adoption strategies for aquatic ecosystem. *International*

Journal of Aquatic Research and Environmental Studies, 4(S1), 20-26.
<https://doi.org/10.70102/IJARES/V4S1/4>

13. Shodmonova, S. (2020). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston matbuotida xotin-qizlar huquqlari haqidagi munozaralar. *Infolib*, (2).

14. Simonyan, R. Z. (2020). *Istoriya meditsiny: s drevneyshikh vremen do sovremennosti: uchebnoe posobie dlya studentov lechebnykh fakultetov* [The history of medicine: From ancient times to the present: A textbook for medical students] Cheboksary: Sreda.

15. World Bank. (n.d.). *Gender Data Portal*. Retrieved April 11, 2025, from <https://genderdata.worldbank.org/en/home>

16. World Health Organization. (n.d.). *WHO Data*. Retrieved April 11, 2025, from <https://www.who.int/data>

17. United Nations. (n.d.). *Population Division – Department of Economic and Social Affairs*. Retrieved April 11, 2025, from <https://www.un.org/development/desa/pd/>

18. Аёлга эҳтиром. (1999). Тошкент: Ўзбекистон.